



Mjölby hokimiyati qo'ldostidagi maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablarida integratsiya

Shvetsiya maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablaridagi faoliyatlar Shvetsiya oliy majlisi chiqargan maktab to'g'risidagi qonun hamda hukumat qabul qilgan ta'lim rejaları asosida boshqariladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablardagi faoliyatlarining asosiy maqsadi bolalar hamda o'quvchilarning bilim va qadriyatlarni o'rganishlari va ularni rivojlantirishlaridan iborat. Bundan tashqari yana hamma bolalar va o'quvchilarning rivojlanishi, bilim olishi va butun umr bilimga bo'lgan qiziqishlarini olg'a surishdan iborat. Ta'lim bundan tashqari, shved jamiyati asosi hisoblangan inson huquqlari hamda asosiy demokratik qadriyatlarga bo'lgan hurmat haqida ma'lumot beradi va yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

Maktablar olg'a suruvchi qadriyatlarga insoniyat hayotining muqaddasligi, shaxslarning erkinligi va integriteti (mahfiyligi), hamma insonlarning teng qadri, ayollar va erkaklarning teng huquqlilari, kuchsiz va zaiflarga hamjihatlik kabi qadriyatlar kiradi.

Shved jamiyatining xalqarovlashuvi va milliy chegaralardagi harakatlarning o'sishi insonlarga boshqa millat qadriyatlarini tanish va ular bilan hamnafas yashash uchun yuqori talablar qo'yimoqda. O'z madaniy merosini bilish hamda umumiy madaniy meroslarni saqlashda ishtirok etish havfsiz shaxshiyatni kashf qilishga olib keladi va bu o'z o'rnida, boshqalarning sharoitlari va qadriyatlari bilan birga yashash va ularni tushuning kabi hislatlarni o'stirishga zamin bo'ladi. Maktab ijtimoiy va madaniy uchrashuv makoni hisoblanadi va o'z o'rnida u yerda ishlayotgan barcha insonlarda shu hislatlarni kuchaytirish uchun ham imkoniyat ham ma'suliyatni o'z bo'yniga oladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablar integratsiya uchun jamiyatning eng muhim faoliyatlarini amalga oshiradi. Mjölby tumani hokimiyati qo'ldostidagi maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablari faoliyati inson huquqlariga hamda asosiy demokratik qadriyatlarga bo'lgan hurmatga asoslangan. Darslardagi yondashuv, faqatgina ba'zi guruhlar emas, balki kattaroq bo'limlar yoki barcha o'quvchilarni o'z ichiga oluvchi turli mashg'ulotlar shu qadriyatlarga suyanadi.

Maktab yondashuvi

Maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablarning faoliyatida, asosan darslar borasida turli madaniy meros yoki/va diniy qarashlar tufayli noaniqliklar kelib chiqmoqda. Quyida noaniqliklarga misollar keltirilgan, va bu malumotlar maktab, o'quvchilar va ota-onalar uchun ham foydali.

Maktab yondashuvining asosi maktab olg'a surayotgan qadriyatlar hamda o'quvchilar ta'lim rejasi bo'yicha qo'yilgan bilim talablarini o'zlashtirishlaridan iborat.

Sana
2016-01-25

Ish raqami Ta'lim
UTB 2015:193

- **Shaxshiy masalalarga ko'ra ta'til**

Maktab mudiri shaxsiy masalalarga ko'ra ba'zi xolatlarda ta'tilga ruhsat berishi mumkin. Bu ta'til darslarga doimiy ravishda kelmaslikka ruhsat bermaydi. Agar o'quvchining bilim talablarini o'zlashtirishida qiyinchilik bo'lishi aniqlansa, ta'til berilish imkoniyati chegaralanishi mumkin.

- **Ovqat**

Gimnaziyalarda har kuni go'sht mahsulotlarini istemol qilmaydiganlar uchun vegetarian ovqatlar beriladi. Maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablarda mahsus ovqat imkoniyati mavjud.

- **Maktabda kiyinish**

Maktabga qaysi kiyimda kelishni asosan o'quvchining o'zi hal qiladi. Kiyimlar dars jarayonida qatnashishni qiyinlashtirmasligi hamda o'ziga va boshqa o'quvchilarga havf-xatar uyg'otmasligi lozim.

- **O'g'il va qiz bolalar bilan birga maktab mashg'ulotlari**

Maktab qadriyatlariga asoslangan darslar ko'pincha o'g'il va qiz bolalardan iborat katta yoki kichik guruhlarda amalga oshiriladi. Ya'ni, darslar, turli tashriflar va boshqa mashg'ulotlar davomida o'quvchi boshqa jinsdagi o'quvchilar bilan birga o'tirishi va birga dars qilishi ko'zda tutiladi.

- **Shvetsiya kalendarida mavjud bo'lmagan bayramlar**

Ta'til so'rash doimiy tartibda ariza orqali amalga oshiradi. Ariza maktab haqidagi qonun asosida ko'rib chiqiladi. Umumiy ta'lim bosh boshqarmasining `Davomat va ta'til` haqidagi huquqiy yo'l-yo'riqlarini o'qishingiz mumkin.

- **Maktabning diniy (xristian) va madaniy bayramlari**

Bular asosan pasxa, yangi yil, yangi yil arafasi va Luchiya. Agar o'quvchi va ota-ona bu bayramlarda qatnashishni xohlashmasa, u holda o'quvchi maktabda boshqa qo'shimcha darga kirishi lozim.

- **Jismoniy tarbiya darslari**

Jismoniy tarbiya darsi boshqa fanlar kabi majburiy fan hisoblanadi. Jismoniy tarbiya darsiga qanday kiyimda kelish boshqa darslar kabi o'quvchining o'ziga bog'liq. Kiyimlar dars jarayonida qatnashishni qiyinlashtirmasligi, o'ziga va boshqa o'quvchilarga havf-xatar keltirib chiqarmasligi lozim.

Jismoniy tarbiya darsidan so'ng cho'milish majburiy hisoblanadi. Maktab o'g'il va qiz bolalar uchun alohida kiyinish va cho'milish xonalari ajratishni o'z bo'yniga oladi.

Ba'zida xonalarda o'zgarishlar bo'lsa, u holda ham alohida kiyinish va cho'milish xonalari bo'lishi e'tiborga olinadi.

Sana
2016-01-25

Ish raqami Ta'lim
UTB 2015:193

Jismoniy tarbiya darslarining bir qismi o'quvchlar 6 sinfda suzish bo'yicha bilim talablariga javob berishlari uchun suzish mashg'ulotlarini o'z ichiga olgan. Suzish darslari Lundby hovuzida (basseyn) amalga oshirilganligi sababli, hovuz qonun-qoidalariga amal qilish lozim: suzish kiyimlari, yana burqiniga (muslimalar uchun suzish kiyimi) ruhsat beriladi, ba'zi mashg'ulot kiyimlari, masalan lycra materialidan tayorlangan suzish kiyimlariga ham ruhsat beriladi. Suzishni boshlashdan oldin, cho'milish hamda sochni yuvish majburiy.

- **Musiqqa darsi**
Musiqqa darsi boshqa fanlar kabi majburiy hisblanadi..
- **Namoz o'qish**
Shaxsiy masalalar uchun ta'vil haqidagi ma'lumotlarni o'qing.
Ya'ni, maktabning odatiy mashg'ulotlariga xalaqit qilmasligi va tanaffuslar davomida amalga oshirilishi lozim. Agar imkoniyat bo'lsa, maktablar biror bir dinga daxli bo'lmagan, umumiy bir xonani ko'rsatishi mumkin.
- **Biologiya darsi (jinsiy aloqa va munosabatlar)**
Biologiya darsi boshqa fanlar kabi majburiy hisoblanadi.
- **Rasm darsi**
Rasm darsi boshqa fanlar kabi majburiy hisoblanadi.